

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TIL VA LINGVISTIKASI UNIVERSITETI



Rektor: *[Signature]* Ixtasinov
2025-yil* avgust

Ro'yhatga olindi: *BD 60310400-ST11210*
2025-yil " 28 " avgust

**SOTSILOGIYA TARIXI
FANINING O'QUV DASTURI
1-KURS**

Bilim sohasi: 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310400 – Sotsiologiya

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi ST11210	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1, 2	Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek-Rus		Haftadagi dars soatlari 6/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sotsiologiya tarixi	120	180	300
2.	<p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Sotsiologiya” ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy salohiyatini ta'minlovchi fanning nazariy asoslari bo'yicha bilimni oshirish, kelgusi amaliy faoliyatda umumiy sotsiologik ta'limotlar, qonuniyatlar asosida ish yuritish bo'yicha tasavvur hamda ongli munosabat shakllantirilishini ta'minlashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - sotsiologiya fanining shakllanish evolyutsiyasi, uning nazariy-g'oyaviy asoslarini o'zlashtirish hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar uchun muhim manba sifatida o'tmish ajdodlar ta'limotlaridan yetarli xabardor bo'lish; talabalarda sotsiologik bilimni dastlabki manbalar yordamida o'zlashtirishni ta'minlash; sotsiologik ta'limotlarning nazariy asoslari tarixini amaliy tadqiqotlar (hujjatlarni o'rganish) asosida ilmiy tushunib yetishni tashkil etish; tarixiy sotsiologik manbalardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOPI-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Rossiyaning M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti ta'lim dasturidagi istoriya ruskoy sotsiologii fan dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi. https://www.socio.msu.ru/documents/bs19_270p.pdf</p> <p>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-SEMESTR</p> <p>1-mavzu. Sotsiologiya fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari. G'arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g'oyaviy-nazariy asoslari (2 s)</p> <p>Kirish. Sotsiologiya tarixi fani predmeti. XIX asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi. A.Sen-Simonning sotsiologik qarashlari. Ijtimoiy islohotlar to'g'risida. Sotsiologiya fanining vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va g'oyaviy-nazariy zaminlari. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining obektiv zaruriyati.</p> <p>Sotsiologik nazariyalar taraqqiyotiga sotsial kuchlar ta'siri: siyosiy inqiloblar, sanoat to'ntarilishi va kapitalizmning rivojlanishi, feminizm, urbanizatsiya, dindagi o'zgarishlar, fan taraqqiyoti, ma'rifatchilik. Sotsiologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari. Sotsiologiya tarixini davrlarga ajratishda yondashuvlarning xilma-xilligi. Fransiya sotsiologiyaning rivojlanishi. Germaniyada sotsiologiyaning rivojlanishi. Angliyada sotsiologiyaning rivojlanishi. Italiyada sotsiologiyaning rivojlanishi. AQSh sotsiologiyasi – sotsiologiya fani taraqqiyotining muhim bosqichi. Sotsiologiya</p>			

fanining institutsionalashuvi. O'zbekistonda sotsiologiya fani taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu. O.Kont – pozitivistik sotsiologiya asoschisi (2s)

O. Kontning (1798-1857) hayoti va faoliyati. O.Kont ijodi va uning o'ziga xosligi. O.Kont tomonidan sotsiologiya faniga asos solinishi. O.Kontning «Pozitiv falsafa ruhi» asarining e'lon qilinishi. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi va unda sotsiologiyaning o'rni. Sotsial dinamika va sotsial statika.

O.Kont pozitiv metodi (ijobiy usuli) ning mohiyati. Pozitivizmning asosiy tamoyillari. O.Kont sotsiologiyaning metodlari haqida. Pozitiv siyosat. O.Kont ta'lim va tarbiya muammolari haqida. Uch bosqich qonuni – O.Kont sotsiologiyasining asosiy qonuni. Sotsiologiya tarixida O.Kont ta'limotining o'rni va ahamiyati.

3-mavzu. G.Spenser va uning tarixiy evolyutsion sotsiologik sistemasi (2s)

G. Spenser (1820-1903) hayoti va ijodi. G.Spenser nazariy ta'limotining asosiy g'oyalari. Jamiyat organizm ekanligi va evolyutsiya umumiy rivojlanish qonuni g'oyasi. Ijtimoiy va biologik organizm o'xshashligi va ular o'rtasidagi tafovutlar. Spenser bir xillikdan ko'p xillikka, oddiydan murakkabga o'tuvchi evolyutsiya qonuni to'g'risida. Evolyutsiya qonuniyatli differentsiatsiya va integratsiya jarayoni sifatida. G.Spenser tarixiy konsepsiyasi, harbiy va sanoatlashgan jamiyat turlarining farqlanishi.

Sotsial institutlar – G.Spenser sotsiologik ta'limotining asosiy qismi. «Sotsiologiya asoslari» asari. Sotsial institut ta'rifi. Sotsial institutlar klassifikatsiyasi: oila-nikoh, urf-odat va marosimlar, siyosiy, diniy, sanoat, kasbiy. Sotsial institutlar doirasida amal qiluvchi uch organlar tizimi: qo'llab-quvvatlovchi, distributiv, regulyativ. Zamonaviy jamiyat rivojida G.Spenser qarashlarining ahamiyati.

4-mavzu. Darrendorfning jamiyatning konfliktli modeli konsepsiyasi (2 s)

Ralf Darendorf-taniqli nemis sotsiologi va Liberal yo'nalish mafkurachisi. Asosiy asarlari: "Sanoat jamiyatidagi sinflar va sinfiy ziddiyat", "ijtimoiy ziddiyat nazariyasining elementlari", "Sinfdan keyingi ziddiyat", "Ziddiyat va erkinlik"

Darendorf-har bir jamiyat o'zgarishga duchor bo'ladi deb taxmin qilinadigan model, umumbashariy deb tan olingan ziddiyatlarga duch keladi. Darendorf jamiyatni ziddiyatli ijtimoiy guruhlar yoki sinflar o'rtasidagi munosabatlarning doimiy o'zgaruvchan tizimi, ziddiyatli ijtimoiy guruhlar yoki sinflar o'rtasidagi munosabatlar sifatida taqdim etadi. R.Darrendorf Ijtimoiy mojarolar muqarrar va hatto zarurligi haqida. Mojaroning yo'qligi jamiyat uchun g'ayritabiiy hisoblanadi. "Ehtimol, mojaro hamma narsaning otasi, ya'ni o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi mumkin, ammo mojaro urush bo'lmasligi va fuqarolar urushi bo'lmasligi kerak", deb yozgan Ralf Darendorf.

Darendorfning fikriga ko'ra, mojarolar ozmi-ko'pmi shiddatli va ozmi-ko'pmi zo'ravon bo'lishi mumkin, ammo ularni tartibga solish zo'ravonlikni kamaytirishning hal qiluvchi vositasidir;

Nizolarni tartibga solish ularni nazorat ostida qiladi va ularning ijodiy kuchi ijtimoiy tuzilmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish xizmatiga qo'yiladi"

5-mavzu. Psixoanalitik (ruhiy tahlil) va psixologik (ruhiyat) sotsiologiya (4s)

Ijtimoiy hayotni biologik vositasida tushuntirishdan qoniqmaslik va sotsiologiyaning ruhiyat tomon burilishga intilishi. Psixologizm XIX asr oxiri XX boshlaridagi ijtimoiy fanlarning umumiy yo'nalishi sifatida. G.Tardning (1843-1904) taqlid nazariyasi. G.Lebonning (1841-1931) guruh psixologiyasi. F. Giddings (1855-1931) va uning asosiy asarlari. U. Mak-Daugallning (1871-1938) instinkt psixologiyasi. Ch. Kulining (1864-1929) sotsial-psixologik ta'limoti. Z.Freyd (1856-1939) va uning ruhiy tahlil ta'limoti. Odamdagi *ratsionallik va irratsionallik xususiyatlari*. Z. Freydning sotsial pessimizmi. Shaxs faolligi tushunchalarining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shaxsning malaka va odatlari. Shaxs borasida qo'sh omillik nazariyasi, chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, biogenetik, sotsiogenetik nazariyalar, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi, shaxs shakllanishi borasida S.L.Rubinshteyn nazariyasi, L.I.Bojovich va shaxs shakllanishi, D.B.Elkonin va shaxs shakllanishi, shaxs shakllanishi borasidagi A.V.Petrovskiy nazariyasi.

6-mavzu. F.Tyonnis – nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili (2 s)

F.Tyonnisning (1855-1936) nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili sifatida. F.Tyonnisning hayoti va ijodi. F.Tyonnisning sotsiologik ijodi. F.Tyonnis sotsiologiyaning predmeti sifatida. Sotsial hayot shakllari to'g'risidagi ta'limot. "Jamo va jamiyat" – F.Tyonnisning asosiy asari. Jamoa va jamiyatni farqlovchi ikki iroda xususiyatlari. Sotsiologiya va siyosatning o'zaro aloqadorligi haqida. F.Tyonnis tomonidan empirik tadqiqotlarning olib borilishi. F.Tyonnis sotsiologik ta'limotining ahamiyati.

7-mavzu. E.Dyurkgeym sotsiologik sistemasi. Dyurkgeymning "O'zini-o'zi o'ldirish asari"ning e'lon qilinishi (4 s)

E.Dyurkgeym (1858-1917) ijodiy faoliyatining g'oyaviy-nazariy zaminlari. Uning asosiy asarlari. E.Dyurkgeym sotsiologiyasining predmeti va metodi. Sotsial fakt tushunchasi. E.Dyurkgeym tomonidan nazariy va amaliy sotsiologiyani sintezlashga intilish. Sotsial rivojlanish ta'limoti. Sotsial birdamlik tushunchasi. Sotsial birdamlikning mexanik va organik turlari.

Anomiya nazariyasi. O'z joniga qasd qilishni tadqiq etish "sotsiologizm" ta'limotini konkret sotsial hodisa tahliliga qo'llanishi sifatida. O'z joniga qasd qilish turlari va uning ijtimoiy omillari. O'z joniga qasd qilishni sotsiologik tadqiq etishda korrelyatsiya usuli. Dinni sotsiologik hodisa sifatida o'rganishda funksional yondashuv. Dyurkgeym sotsiologiyasining hozirgi davrdagi ahamiyati.

8-mavzu. G.Zimmel formal sotsiologiyasi (2 s)

G.Zimmel (1858-1918) hayoti va ijodi. Uning sotsiologik konsepsiyasining falsafiy va metodologik prinsiplari. G.Zimmel tadqiqotlarining asosiy muammolari. Sotsiologiyaning aprior tarzda amal qiluvchi fan ekanligi. Sotsiologiya predmeti. Sotsial guruhlarning barqarorligi. Zimmelning tarixiy rivojlanish konsepsiyasi. G.Zimmel tomonidan madaniyat muammolari yechimining ishlab chiqilishi. Zimmelning moda sotsiologiyasi. G.Zimmel sotsiologiyasining uning zamondoshlari tomonidan baholanishi.


	<p>40. Холбеков А.Ж., Идров У.Ю. Социология. Иллюстрированный словарь. – Тошкент: ИБН-Сино наشريёти, 1998.</p> <p>41. George Ritzer, Jeff Stepnisky. Contemporary Sociological Theory And Its Classical Roots: The Basics: 4- Ed. McGraw-Hill Higher Education, 2012.</p> <p>42. Н. Turner. Theoretical Sociology. SAGE Publications, Inc. 2013.</p> <p>43. Heinz Maus. A Short History of Sociology. Routledge, 1998.</p> <p>44. Joas H., Knobl W. Sozialtheorie. Frankfurt/M.: Suhrkamp, 2004.</p> <p>45. Lechte John. Fifty Key Contemporary Thinkers: From Structuralism to Post-Humanism. Taylor & Francis e-Library, 2007.</p> <p>46. Lewis A. Coser. Masters of Sociological Thought: Ideas in Historical and Social Context 2nd Ed. Waveland Press, Inc.; 2003.</p> <p>47. Michele Dillon. Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014.</p> <p>48. Scott Appelrouth. Laura Desfor Edles. Classical and Contemporary Sociological Theory: Text and Readings. 2-Ed. – Los Angeles: Pine Forge Press, 2011.</p> <p>49. Scott John (Editor). Fifty Key Sociologists: The Contemporary Theorists. Taylor & Francis e-Library, 2006.</p> <p>50. Turner S. American Sociology: From Pre-Disciplinary to Post-Normal. New York: Palgrave Pivot. 2013.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>1. http://www.ziynet.uz 2. http://www.nuu.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.stat.uz</p>
7.	O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 28 -avgustdagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (1 - sonli bayonnoma).
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: B.Sh.Karimov – O 'zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori. F.R. Davronova - O 'zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, f.d. (PhD)
9.	Taqrizchilar: G.Sh.Jiyanmuratova – O'zMU, "Sotsiologiya" kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) B.A.Farfiyev – O'XIA, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (turdosh OTM)

Xaiqaro jurnalistika fakulteti dekani



A. Matyakubov

Siyosiy fanlar kafedrasida mudiri



S. Saidov

Universitet axborot resurs markazi direktori



S. Kayumova

<p style="text-align: center;">9-mavzu. M.Veberning sotsiologik qarashlari. M.Veber ijodida ideal tip tushunchasi (4s)</p> <p>M.Veber (1864-1920) ijodining g'oyaviy-nazariy zaminlari, uning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi. M.Veberning asosiy asarlari. Sotsiologiya predmeti. Sotsial xatti-harakat tushunchasi. Sotsial xatti-harakatning tuzilishi va turlari. "Ideal tip" tushunchasi. "Ideal tip" tarixiy va sotsiologik bilish vositasi sifatida. Tushunish metodi. M.Veberning ratsionalistik qarashlari.</p> <p>M.Veber tomonidan sotsiologiyaning muhim tarmoqlarini ishlab chiqilishi: iqtisodiy sotsiologiya, din sotsiologiyasi, fan sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, siyosat va madaniyat sotsiologiyasi. Veberning "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" asari. Kapitalistik tuzumni talqin qilishda M.Veberning Marksga bildirgan asosli e'tirozlari. M.Veber g'oyalarining hozirgi zamon sotsiologiyasiga ta'siri.</p> <p style="text-align: center;">2-SEMESTR</p> <p style="text-align: center;">10-mavzu. V.Pareto sotsiologik sistemasi (2s)</p> <p>Sotsiologiya fanining Italiyada rivojlanishi xususiyatlari. V.Paretoning (1848-1923) hayoti va ijodi. V.Paretoning nazariy qarashlari evolyutsiyasi. V.Pareto nazariyasida jamiyat dinamik barqarorlik holatidagi yaxlit tizim sifatida. V.Pareto sotsiologiyasida mantiqiy va mantiqiy bo'lmagan harakatlar. V.Paretoning elita nazariyasi. V.Pareto sotsiologik qarashlarning ahamiyati. V.Pareto "Lozanna maktabi" davomchisi</p> <p style="text-align: center;">11-mavzu. AQSh empirik sotsiologiyasi. Chikago maktabi (2 s)</p> <p>XX asrning birinchi 30-yilligida AQSh sotsiologiyasida neopozitivizm sotsiologiyasining umumiy xususiyatlari. Neopozitivistik sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlari: empirizm, bixeviorizm, ramziy interaksionizm, strukturaviy funksionalizm. Neopozitivistik sotsiologiyaning asosiy postulatlarini.</p> <p>Empirik sotsiologiya tushunchasi va uning vujudga kelishi sabablari. 1920 – 1930-yillarda AQShda empirik sotsiologiyaning rivoji. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning metodologiyasi, metodikasi va texnikasining ishlab chiqilishi. U.Tomas va F.Znanetskiy ijodi bosqichlari. Sotsiologiyada Chikago maktabining vujudga kelishi. R.Park va E.Byordjessning ijodi. U.Ogborn va L.Virt qarashlarining tavsifi. Chikago maktabi inqirozi sabablari. Sotsiologiya tarixida Chikago maktabining ahamiyati.</p> <p style="text-align: center;">12-mavzu. F. Znanetskiy – AQSh sotsiologiyasining mumtoz vakili (2s)</p> <p>F.Znanetskiyning (1882-1958) hayoti va ijodi bosqichlari. F.Znanetskiy sotsiologiyasining falsafiy asoslari. F. Znanetskiyning asosiy asarlari. F.Znanetskiyning sotsiologiya obyekti, predmeti va vazifalari haqidagi qarashlari. F.Znanetskiy tomonidan to'rt madaniy tizimning sotsiologiyaning predmeti sifatida ilgari surilishi. M.Veberning sotsial harakat nazariyasining rivojlantirilishi. F.Znanetskiy gumanistik sotsiologiyaning vakili sifatida. F.Znanetskiy "analitik induksiya" haqida. F.Znanetskiy madaniyat haqida. Umumqamrovli sotsiologik tizimni yaratishga qaratilgan urinishlari.</p> <p style="text-align: center;">13-mavzu. Sotsiometriya tushunchasi. J. Moreno sotsiometriyasi. Ramziy interaksionizm (4s)</p>
--

J.Moreno (1892-1974) – sotsiometriya asoschisi. Voqelikning uch o'Ichami: tashqi kuzatiladigan, sotsiometrik – ichki shaxslararo, ya'ni tashqi kuzatilmaydigan va real, ya'ni yuqoridagilarning o'zaro ta'sir natijasida paydo bo'ladigan. J.Morenoning rolli nazariyasi. Rolli xulq-atvor va uning sotsial tajriba shakllanishidagi ahamiyati. Psixodramatik vaziyat dunyo modeli sifatida. J.Moreno tomonidan «psixodramatik» metodni sotsiologiyaning asosiy metodiga aylantirilishi. Sotsial tajribaning «ramziy-dramatik» interpretatsiyasi. Ijtimoiy hayotda ramzning ahamiyati va roli«O'zaro ta'sir» – ramziy interaksionizmning asosiy tushunchasi. J. Mid (1863-1931) talqinidagi sotsial tajriba mazmuni. Individual ong shakllanishi jarayoni. J.Mid tomonidan ijtimoiy ongni tadqiq etish usullarining ishlab chiqilishi. Shaxs strukturasi tahlili. G.Blumerning (1900-1987) ramziy interaksionizmi.

I.Gofman (1922-1982) tomonidan jamiyatning dramaturgik modelining taqdim etilishi. Dramaturgiya ramziy o'zaro ta'sirning turlaridan biri sifatida. Kundalik dunyoni teatr tomoshasi bilan taqqoslash.

14-mavzu. Garvard universiteti ravnaqi. P. Sorokin ijodida “sotsial stratifikatsiya” va “sotsial mobillik” nazariyalarining ishlab chiqilishi (4s)

AQShning Garvard universitetida sotsiologiya bo'limining tashkil etilishi. Garvard – yirik sotsiologiya nazariyotchilari maskani (T.Parsons, R.Merton, J.Xomans, B.F.Skinner va b.). P.Sorokin (1889-1968) faoliyatining shakllanish asoslari. P.Sorokin faoliyatining Rossiya va AQSh davri. P.Sorokin sotsiologiyaning predmeti, vazifalari va chegaralari haqida. P.Sorokinning sotsiomadaniy dinamika nazariyasi beshta madaniy tizim: til, axloq, din, madaniyat va fanning taraqqiyoti sifatida. Haqiqat hissiy, ratsional va intuitiv bilishning birligi sifatida.

P.Sorokin Yevropa va Amerika madaniyati inqirozi haqila. Sotsiologiyada bixevioristik, empirik va tabiiy-ilmiy yondashuvlarni sintez qilishga harakat. P.Sorokin tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlari haqida. P.Sorokin sotsial guruhlar haqida. P.Sorokin sotsial hodisalarni tadqiq etishning obyektiv va subyektiv usullari haqida. Sorokinning empirik tadqiqotlari. “Sotsial stratifikatsiya” va “sotsial mobillik” nazariyalarining ishlab chiqilishi. P.Sorokin ta'limotining sotsiologiya rivojiga ta'siri.

15-mavzu. T. Parsonning strukturaviy-funksional nazariyasi (2 s)

T.Parsons (1902-1979) hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati. T.Parsonning sotsial tizim nazariyasi shakllanishiga M.Veber, E.Dyurkgeym, A.R.Radkliff-Braun, B.Malinovskiyalar g'oyalarning ta'siri. T.Parsons ta'limotining asosiy tushunchalari: sotsial rol, sotsial status, ijtimoiylashuv, sotsial nazorat. “Sotsial harakat strukturasi” asarida T.Parsons tomonidan sotsial harakat nazariyasining rivojlantirilishi. Parsons nazariyasida tizim va quyi tizimlar. T.Parsonning umumotsiologik nazariyani yaratishga urinishi. T.Parsons tizim sotsiologiyasining chegaralanganligi.

T. Parsons tomonidan sotsial harakat rolli nazariyasining ishlab chiqilishi. Sotsial rol, rolli ko'rsatmalar, sotsial status (maqom) va sotsial harakat funksiyalari tushunchalari. T.Parsons sotsiologiyasida sotsial harakatning sotsial xulq-atvordan farqi. Organizm, jamiyat, madaniyat sotsial harakat asosi sifatida. «Sotsial harakatlar tizimi», «sotsial harakatlar strukturasi», «sotsial institut», «sotsial ko'rsatmalar» kabi tushunchalarning fanga kiritilishi. Institutsional sotsiologiyaning yaratilishi, sotsial institutlar turlari va ularning funksiyalari. G'arb sotsiologiyasi rivojida T.Parsons ta'limotining ahamiyati.

17. Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГУПУ, 2015.
18. История социологии / под общ. ред. А.В.Воронцова. – М.: Издательство Юрайт, 2013.
19. История социологии (XIX – первая половина XX века): Учебник / под общ. ред. проф. В.И.Добренёва. – М.: ИНФРА-М, 2004.
20. История теоретической социологии. Социология XIX века: от появления новой науки до предвестников ее первого кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.
21. История теоретической социологии. Стабилизационное сознание и социологическая теория в век кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.
22. Йоас Х., Кнебль В. Социальная теория. Двадцать вводных лекций. Пер.с.нем. – СПб.: Алтейя, 2011.
23. Капитонов Э.А. История и теория социологии. Учебное пособие для вузов. – М.: Издательство ПРИОР, 2000.
24. Козер Льюис А. Мастера социологической мысли. Идеи в историческом и социальном контексте. – М.: Норма, 2006.
25. Коллинз Р. Четыре социологических традиции. – М.: Изд-во «Территория будущего», 2009.
26. Кравченко А.И. Социология в 2 ТТ. Том 1. Классические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
27. Кравченко А.И. Социология в 2 ТТ. Том 2. Новые и новейшие социологические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
28. Кукушкина Е.И. История социологии: Учебник. – М.: НИЦ Инфра-М, 2013.
29. Лавров П.Л. Из истории социальных учений. – М.: «ЛКИ», 2011.
30. Немировский В.Г. История социологии. – М.: ВЛАДОС, 2005.
31. Полякова Н.Л. XX век в социологических теориях общества. – М., 2004.
32. Симонова О.А. История социологии XX века: избранные темы: учебное пособие. – М.: Издательство: Логос, 2008.
33. Социология: Основы общей теории: учебное пособие / Под. ред. А.Ю.Мягкова. – М.: ФЛИНТА; МПСИ, 2011.
34. Социология на пороге XXI века: Основные направления исследований / Под ред. С.И.Григорьева, Ж.Кознен-Хуттера. – М., 1999.
35. Трошкин Е.И. История социологии. – Челябинск: Издательство ЮУрГУ, 2006.
36. Фарфиев Б.А. Нуруллаева У. Социология тарихи. Услубий қўлланма. – Тошкент: Университет, 2009.
37. Фарфиев Б.А. Социология тарихи. Маърузалар матни. – Тошкент: Университет, 1999.
38. Хвостов В.М. Социология: исторический очерк учений об обществе. – М.: Книжный дом «Либроком», 2011.
39. Холбеков А.Ж. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг социологик қарашлари. – Тошкент: Университет, 1996.

- Normurodov B., Normurodova B. Sotsiologiya tarixi XIX-XX asr. O'quv qo'llanma. "Tafakkur". –Toshkent, 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. –80 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
- 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y.
- 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y.
- Батурина Т.В., Ивлев С.В. История социологии. – Кемерово, 2002.
- Батыгин Г.С., Подвойский Д.Г. История социологии. Учебник. – М.: Высшее Образование и Наука, 2007.
- Бачинин В.А., Сандулов Ю.А. История западной социологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002.
- Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии: учебное пособие. – М.: КДУ, 2008.
- Зарубин В.Г., Семенов В.А. Социологические концепции: учебное пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2021. <https://urait.ru/bcode/475444>
- Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГУПУ, 2014.

16-mavzu. R. Merton va uning strukturaviy funksionalizmi (4 s)

Strukturaviy-funksional g'oyalarning R.Merton (1910-2003) tomonidan rivojlantirilishi. Strukturaviy funksionalizmni nazariya sifatida emas, balki metod sifatida talqin etish. Merton tomonidan funksional tahlil qoidalarining ilgari surilishi. R.Merton tomonidan "o'rtacha maqom nazariya" va "referent guruhlar" nazariyalarining ishlab chiqilishi. Funksiya va funksional ehtiyoj tushunchalarning o'zaro aloqasi. Merton ta'limotida yaqqol va latent (yashirin) funksiyalar, disfunktsiyalar. Ilmiy muammolarning sotsiologik tashhisi. R.Mertonning siyosat sotsiologiyasi. Merton tomonidan deviatziya muammolarining o'rganilishi.

17-mavzu. Gegelning ijtimoiy-falsafiy qarashlari (2s)

G.Gurvich (1894-1965) dogmatizmga qarshi dialektika haqida. Gurvich dialektikasining uch komponenti: tezis, antitezis va sintez. Empirizm bilan birlashtirish yordamida dialektikani modernizatsiyalash. Giperempirizm Gurvichning empirik-realistik dialektik nazariyasi sifatida. Gurvich sotsiologiyasida yaxlitlik muammosi. Fransiyada XX asrning 60-yillarida yangi iqtisodiy va sotsial jarayonlarga nisbatan an'anaviy dialektikani tanqidiy qayta ko'rib chiqish. T.Adorning negatv dialektikasi. Adorno dialektikasida irratsionalizm. Xorkxaymer va Adorno tomonidan sotsiologiyaning an'anaviy nazariya va metodologiyasi tanqidi. Sotsiologiyada dialektik yo'nalish antipozitivizmi.

18-mavzu. E. Frommning radikal gumanizmi (2 s)

E.Fromm (1900-1980) tomonidan Z.Freyd ta'limotining rivojlantirilishi. E.Frommning radikal gumanizm nazariyasi. E.Frommning «Sog'lom jamiyat». E.Frommning erkinlik va uning turlari to'g'risidagi ta'limoti. E.Frommning destruktivlik nazariyasi. Fromm shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli haqida. E.Fromm tomonidan begonalashuv masalalarining tadqiq etilishi. «Erkinlikdan qochish» asarining sotsiologik mazmuni.

19-mavzu. Sotsiologiyada sotsial konflikt paradigmasi (4 s)

L.Kozerning (1913-2003) pozitiv-funksional konflikt nazariyasi. Sotsial konflikt tushunchasi. Sotsial konfliktning asosiy funksiyalari. Konflikt tiplari. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy tengsizlik, rollar tengsizligi sotsial konflikt asosi sifatida. "Konfliktning sotsial funksiyalari" asari. R.Darendorf (1929-2009) tomonidan jamiyatning konfliktli modeli sotsiologik konsepsiyasining ishlab chiqilishi. Ishtirokchilar manfaatlar qarama-qarshiligi konfliktning asosi sifatida.

Konfliktning boshqa nazariyalarining R.Kollinz, D.Bell, K.Boulding (AQSh), M.Kroze, A.Turen (Fransiya), Y.Galtung (Norvegiya) va boshqalar tomonidan rivojlantirilishi.

20-mavzu. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar. F.Giddings ijtimoiy qarashlari (2 s)

Fenomenologik sotsiologiya (A.Shyuts, P.Berger, T.Lukman va boshq.) va etnometodologiya (G.Garfinkel). Sotsiologiyada neofunksionalizm (N.Luman, J.Aleksander). N.Lumanning kommunikativ jamiyat konsepsiyasi. E. Giddensning strukturatsiya nazariyasi. P. Burdening strukturalistik konstruktivizmi. Strukturalizm

(F.de Sossyur, Klod Levi-Stross, A.Turen, P.Shtompka), poststrukturalizm (J.Derrida, M.Fuko), postmodernizm (Z.Bauman, F.Jeymison, J.Bodriyyar).

Globallashuv jarayonining zamonaviy sotsiologik nazariyalarga ta'siri. N.Lumanning o'ziga o'zi referent tizim nazariyasi. I.Vallersteynning dunyoviy-tizimli tahlil nazariyasi. J.Ritser: jamiyat makdonaldizatsiyasi. M.Kastelsning jamiyatning tarmoqli nazariyasi. Nanojamiyat sotsiologik nazariyasi. J.Urri: sotsiologiyada burilishlar. U.Bek: xavfli burilish. AQSh sotsiologiyasida F. Giddens ijtimoiy qarashlari va J.Xomans (1910-1989) ayirboshlash nazariyasining mazmun-mohiyati. J.Xomansning asosiy postulatlar: muvaffaqiyat, rag'batlantirish, qadriyat, deprivatsiya, tajovuzkorlik, oqilonalik. P.Blauning integrativ ayirboshlash nazariyasi. P.Blau (1918-2002) ayirboshlash nazariyasini strukturaviy-interaksionizm, simvolik interaksionizm va konfliktologiya konsepsiyalari bilan boyitishi. R.Emersonning (1925-1982) sotsiologik ijodi. R.Emersonning ijtimoiy tarmoq nazariyasi. «Hukmronlik-tobelik» munosabatlari. Ijtimoiy ayirboshlash tarmog'ida xavf va ishonch.

21- mavzu. Tarmoq sotsiologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi.

Xarbiy sotsiologiyaning vujudga kelishi (4 s)

Sanoat sotsiologiyaning vujudga kelishi. E.Meyo sanoat sotsiologiyasining asoschisi sifatida. Xotom tajribasi. Insoniy munosabatlar nazariyasi Xotorn tajribasining natijasi sifatida. 1930 – 1940-yillarda tarmoq sotsiologiyalarining rivojlanishi.

Harbiy sotsiologiya. Ishlab chiqarish sohasida sotsiologiyaning tarmoq yo'nalishlari. Tadqiqotlar metodologiyasi va metodikasi sohasida yutuqlar. P.Lazarfeldning sotsiologik ijodi. Harbiy sotsiologiya tarixi jamiyatning o'zini o'zi bilish vositasi sifatida umumiy sotsiologiya tarixining tarkibiy qismidir. Nazariy harbiy sotsiologiyaning mafkuraviy va konseptual kelib chiqishini qadimgi dunyo ijtimoiy falsafasida topish mumkin. Ma'rifat davrida harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish orqali harbiy sotsiologik bilimlarning keyingi rivojlanishi uchun asoslar yaratildi va sanoat inqilobi ixtisoslashtirilgan ta'limni har qanday texnologik rivojlangan faoliyat sohasi uchun ajralmas holga keltirdi, buning natijasida XVIII-XIX asr boshlarida birinchi harbiy akademiyalar tashkil etila boshlandi.

Harbiy kadrlar tayyorlash jarayonida yetakchi o'rinni tabiiy fanlar va texnik fanlar egallagan, ammo vaqt o'tishi bilan ijtimoiy-gumanitar tarkibiy qism unda tobora muhim rol o'ynay boshladi.

22 - mavzu. O'zbekistonda zamonaviy sotsiologiyaning holati va istiqbollari (2 s)

Sotsiologiyaning rivojlanishi va takomili jamiyatni chuqur o'rganish, uning oldida turgan murakkab muammolarni samarali yechishga imkon beradi. Sotsiologiya butun jamiyat, shuningdek uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarning rivojlanish va mavjud bo'lishi, turli sotsial jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini o'rganuvchi sifatida.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'layotganligi tufayli yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lib, bu sotsiologiyaning mustaqil ijtimoiy fan sifatida rivojlanish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruh, mikroguruh bo'lib ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.</p> <p>Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</p> <p>5 (a'lo) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p>4 (yaxshi) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.</p> <p>3 (qoniqarli) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. Jiyannuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b.</p>

	<p>71. E.Dyurkgeymning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti» asari (1893) (2 s)</p> <p>72. E.Dyurkgeymning “O’zini o’zi o’ldirish” asarini e’lon qilishi sabablari (1897) (2s)</p> <p>73. E.Dyurkgeymning din sotsiologiyasi bo’yicha asarlari (2 s)</p> <p>74. G.Zimmelning sotsiologiya predmeti haqidagi fikrlari (2 s)</p> <p>75. G.Zimmelning «Pul falsafasi» asari (1900) (2 s)</p> <p>76. M.Veberning «Xo’jalik va jamiyat» asari (2 s)</p> <p>77. M.Veberning «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari (2 s)</p> <p>78. V.Paretoning ijtimoiy tengsizlik haqidagi fikrlari (2 s)</p> <p>79. Empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi tarixi (2 s)</p> <p>80. XX-XXI asr boshlari sotsiologiyasini davrlarga ajratish muammolari (2 s)</p> <p>81. AQSh sotsiologiyasida neopozitivizm g’oyalari (2 s)</p> <p>82. Sotsiologiyada neopozitivizm yo’nalishi vujudga kelishining asosiy sabablari (2 s)</p> <p>83. Torsteyn Veblenning sotsiologik g’oyalari (2 s)</p> <p>84. Chikago maktabining sotsiologiya tarixida tutgan o’rni (2 s)</p> <p>85. R.Parkning sotsiologik g’oyalari (2 s)</p> <p>86. U.Tomas va F. «Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada» asari (2 s)</p> <p>87. Ramziy interaksionizmning asosiy tamoyillari (2 s)</p> <p>88. J.Midning ramziy interaksionizm nazariyasi (2 s)</p> <p>89. G.Blumerning ramziy interaksionizmi (2 s)</p> <p>90. I.Goffmannning dramaturgiyasi (2 s)</p>
3.	<p>V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>– “Sotsiologiya tarixi” fanining obyekt va predmeti; sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi jarayoni; sotsiologik yo’nalish va maktablarni vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari; sotsiologik g’oyalarning asosiy oqimlari evolyutsiyasining xususiyatlari va tendensiyalari; turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo’lgan sotsiologik fikrlar va ta’limotlarning jamiyat rivojiga ta’siri haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo’lishi</i>;</p> <p>– sotsiologik tahlilning asosiy qoidalari va muammolarini ajrata olish; turli sotsiologik maktab va yo’nalishlar vakillari tomonidan ilgari surilgan sotsiologik fikr va g’oyalarning talqin etilishi evolyutsiyasini kuzatish; sotsiologik nazariya va tadqiqotlar amaliyotining o’zgarishidagi o’zaro bog’liqlikni ko’rsatib berish; sotsiologiyada empirik sotsiologik tadqiqot usullarining shakllanishi va rivojlanishi tendensiyalari, sotsiologik maktablar g’oyalari e’tiborning kuchayishi va susayishi sabablari, ijtimoiy taraqqiyotiga ta’sir ko’rsatgan ilg’or sotsiologik g’oyalardan foydalana olish <i>ko’nikmalariga ega bo’lishi</i>;</p> <p>– turli sotsiologik konsepsiyalar va ularning xulosalarini metodologik tahlil qilish; turlicha sotsiologik nazariyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olish va ulardan amaliyotda foydalana olish; sotsiologik ta’limotlarning rivojlanishidagi o’rganilayotgan qonuniyatlar negizida jamiyatni isloh qilish bilan bog’liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash; ijtimoiy islohotlarni nazariy jihatdan asoslash hamda amalga oshirishning xorijiy va mamlakatimizdagi tajribalari natijalarini baholash; turli davrlardagi sotsiologik g’oyalarni umumlashtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va yangi sotsiologik konsepsiyalarni yarata olish <i>malakasiga ega bo’lishi kerak</i>.</p>
4.	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar;

	<p>III. Seminar mashg’ulotlari buyicha ko’rsatma va tavsiyalar</p> <p>III. Amaliy mashg’ulotlari bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Amaliy mashg’ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o’tilishi, mashg’ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>Seminar mashg’ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <p style="text-align: center;">1-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sotsiologiya fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari. G’arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g’oyaviy-nazariy asoslari (2 s) 2. O.Kont – pozitivistik sotsiologiya asoschisi (2s) 3. G.Spenser va uning tarixiy evolyutsion sotsiologik sistemasi (2s) 4. Darrendorfning jamiyatning konfliktli modeli konsepsiyasi (2 s) 5. Psixanalitik (<i>ruhiy tahlil</i>) va psixologik (<i>ruhiyat</i>) sotsiologiya (4s) 6. F.Tyonnis – nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili (2 s) 7. E.Dyurkgeym sotsiologik sistemasi. Dyurkgeymning “O’zini-o’zi o’ldirish asari”ning e’lon qilinishi (4 s) 8. G.Zimmel formal sotsiologiyasi (2 s) 9. M.Veberning sotsiologik qarashlari. M.Veber ijodida ideal tip tushunchasi (4s) <p style="text-align: center;">2-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. V.Pareto sotsiologik sistemasi (2s) 11. AQSh empirik sotsiologiyasi. Chikago maktabi (2 s) 12. F. Znanetskiy – AQSh sotsiologiyasining mumtoz vakili (2s) 13. Sotsiometriya tushunchasi. J. Moreno sotsiometriyasi. Ramziy interaksionizm (4s) 14. Garvard universiteti ravnaqi. P. Sorokin ijodida “sotsial stratifikatsiya” va “sotsial mobillik” nazariyalarining ishlab chiqilishi (4s) 15. T. Parsonsning strukturaviy-funksional nazariyasi (2 s) 16. R. Merton va uning strukturaviy funksionalizmi (4 s) 17. Gegelning ijtimoiy-falsafiy qarashlari (2s) 18. E. Frommning radikal gumanizmi (2 s) 19. Sotsiologiyada sotsial konflikt paradigmasi (4 s) 20. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar. F.Giddings ijtimoiy qarashlari (2 s) 21. Tarmoq sotsiologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Xarbiy sotsiologiyaning vujudga kelishi (4 s) 22. O’zbekistonda zamonaviy sotsiologiyaning holati va istiqbollari (2 s) <p>IV. Mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo’yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:</p> <p>Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo’yilgan talablar O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug’i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta’limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlahi HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p> <p>- o’tilgan mavzuni chuqur o’rganishlari uchun darslik, o’quv materiallari bilan faol ishlash;</p>
--	--

- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislarni va ma'ruza tayyorlash;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-semestr

1. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining obektiv zaruriyati (2 s)
2. Fransiyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2 s)
3. Germaniyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2 s)
4. Angliyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2 s)
5. Italiyada sotsiologiyaning rivojlanishi (2 s)
6. AQSh sotsiologiyasi – sotsiologiya fani taraqqiyotining muhim bosqichi (2 s)
7. Sotsiologiya fanining institutsionalashuvi (2 s)
8. O'zbekistonda sotsiologiya fani taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari (2 s)
9. O.Kont tomonidan sotsiologiya faniga asos solinishi (2 s)
10. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi va unda sotsiologiyaning o'rni (2 s)
11. G.Spenserning tarixiy-evolyutsion konsepsiyasi (2 s)
12. G.Spenserning sotsial institutlar klassifikatsiyasi (2 s)
13. Sotsiologiya tarixida mexanik maktab (2 s)
14. Sotsiologiya tarixida geografik maktab (2 s)
15. Sotsiologiya tarixida irqiy-antropologik maktab (2 s)
16. Sotsiologiya tarixida bioorganik maktab (2 s)
17. Sotsiologiya tarixida sotsial-darvinizm maktabi (2 s)
18. V.Vundtning xalqlar psixologiyasi (2 s)
19. G.Tardning taqlid nazariyasi (2 s)
20. G.Lebonning guruh psixologiyasi (2 s)
21. U.Mak-Daugallning instinkt psixologiyasi
22. Ch.Kulining sotsial-psixologik ta'limoti (2 s)
23. Z.Freydning psixologik reduksionizmi (2 s)
24. F. Tyonnisning nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili sifatida (2 s)
25. F.Tyonnis tomonidan empirik tadqiqotlarning olib borilishi (2 s)
26. E.Dyurkgeymning sotsiologizm konsepsiyasi (2 s)
27. E.Dyurkgeym ijodida sotsial birdamlik g'oyasi (2 s)

28. E.Dyurkgeymning anomiya nazariyasi (2 s)
29. G.Zimmelning tarixiy rivojlanish konsepsiyasi (2 s)
30. G.Zimmelning moda sotsiologiyasi (2 s)
31. M.Veber ijodida sotsial xatti-harakat tushunchasi
32. M.Veber ijodida "ideal tip" tushunchasi (2 s)
33. V.Pareto sotsiologiyasida mantiqiy va mantiqiy bo'lmagan harakatlar (2 s)
34. V.Paretoning elita nazariyasi (2 s)
35. Sotsial statistika va uning shakllanishida A.Ketlning roli (2 s)
36. Fransiyada XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida empirik sotsial tadqiqotlar (2 s)

2-semestr

37. Angliyada XIX asr oxirida empirik sotsial tadqiqotlar (2 s)
38. Germaniyada XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida empirik sotsial tadqiqotlar (2 s)
39. XX asrning ilk 30-yilligida AQSh sotsiologiyasida neopozitivizm (2 s)
40. J.Gellapning empirik sotsiologik tadqiqotlari (2 s)
41. Sotsiologiya tarixida Chikago maktabining tutgan o'rni (2 s)
42. F.Znanetskiy gumanistik sotsiologiyaning vakili sifatida (2 s)
43. J. Mid ramziy interaksionizmning asoschisi sifatida (2 s)
44. G.Blumerning ramziy interaksionizmi (2 s)
45. J.Moreno sotsiometriya asoschisi sifatida (2 s)
46. Harbiy sotsiologiyaning vujudga kelinishi (2 s)
47. P.Lazarsfeldning sotsiologik ijodi (2 s)
48. Sotsiologiya tarixida Garvard universitetining tutgan o'rni. P.Sorokinning sotsiomadaniy dinamika nazariyasi (2 s)
49. Sotsiologiya fani vujudga kelishining asosiy omillari (2 s)
50. Sotsiologiya fani taraqqiyotini davrlarga ajratish muammolari (2 s)
51. Sotsiologiya fani taraqqiyotini davrlarga ajratish muammolari (2 s)
52. O.Kontning «Pozitivistik katexizis» asari (1851) (2 s)
53. O.Kont pozitivistik sotsiologiyasida uch bosqich qonunining ahamiyati (2 s)
54. G.Spenserning «Sotsial statika» asari (2 s)
55. G.Spenserning «Sintetik falsafa tizimi» asari (2 s)
56. G.Spenserning sotsial institut haqidagi qarashlari (2 s)
57. Sotsiologiya tarixida pozitivistik-naturalistik maktablarning ahamiyati (2 s)
58. Geografik maktab va uning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni (2 s)
59. Irqiy antropologik maktabning asosiy tamoyillari (2 s)
60. Psixologik sotsiologiyaning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni (2 s)
61. Shteyntalning "xalqlar psixologiyasi" (2 s)
62. V.Vundtning sotsial psixologik qarashlari
63. G.Tardning taqlid nazariyasi (2 s)
64. G.Lebonning guruh psixologiyasi (2 s)
65. F.Giddings ijtimoiy qarashlari (2 s)
66. U.Mak-Daugallning instinkt psixologiyasi (2 s)
67. Ch.Kulining sotsiologik g'oyalari (2 s)
68. Z.Freyd sotsiologiyada psixotahlil yo'nalishi asoschisi (2 s)
69. Z.Freydning «Psixanalizni o'tkazish bo'yicha ma'ruzalar» asari (1916-1917) (2s)
70. F.Tyonnisning «Jamo va jamiyat» asari (2 s)